

Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar» kafedrasida katta o'qituvchisi G.A.Suvonovning Biotexnologiya fakulteti 60812100- Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalariga "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" fanidan «Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar hamda qishloq xo'jaligidagi ahamiyati» mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

Botanika fani biologiyaning eng qadimgi fanlaridan sanaladi. Bu fanning keng rivojlanishi natijasida ko'plab yangi sohalarni ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. O'simliklar seleksiyasi, introduksiyasi, farmakologiya, biotexnologiya kabi fanlar bilan bir qatorda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun eng muhim o'rganilishi kerak bo'lgan fanlardan biri bo'lib kelmoqda. Keyingi vaqtlarda botanika fanning yutuqlari asosida dorivor o'simliklarni yetishtirishda o'simliklarni introduksiyasi, ko'payishi, gullashi, tarqalishi, yashovchanligi, ularga muhit omillarining ta'siri, ularda o'tadigan fotosintez, transpiratsiya jarayonlarini o'rganish orqali bu soha keng rivojlanmoqda. Botanika fanining eng katta bo'limlaridan gulli o'simliklar sistematikasida nafaqat tabiiy holda o'suvchi o'simliklarni balki, madaniy, dorivor o'simliklarni, shu jumladan tabobatda keng foydalanilayotgan ekinlarning biologik xususiyatlari, ta'rifi, tarqalishi, sistematik o'rni, tarkibi va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalariga o'quv dasturlarida Botanika va o'simliklar fiziologiyasi fani jami 240 soat ajratilgan bo'lib, ma'ruza 40 soat, amaliy mashg'ulotlari 40 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 40 soat, mustaqil ta'lim 120 soatni tashkil etadi. Butun bir fan davomida talabalarga botanika va o'simliklar fiziologiyasi chuqur o'rgatib bo'lmaydi.

Mazkur ishlanmada dastlab mavzuni o'qitish texnologiyasi batafsil yoritilgan ya'ni darsning maqsadi, dars bayoni savol va topshiriqlar keltirilgan. Oxirida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bilimni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar o'rin olgan. Yangi adabiyotlardan foydalanilgan.

G.A.Suvonova tomonidan tayyorlangan ushbu "Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar hamda qishloq xo'jaligidagi ahamiyati" mavzusidagi ishlanmasi muhim ahamiyatga ega va talabalar bilim va ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

SamDVMChBU, "Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar" kafedrasida dotsent, q.x.f.n



E.I.Xamdamova

Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar" kafedrasida katta o'qituvchisi G.A.Suvonovning Biotexnologiya fakulteti 60812100- Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalariga "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" fanidan "Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar hamda qishloq xo'jaligidagi ahamiyati" mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

O'simliklarning tuzilishini, ularning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarini, o'simliklarning o'sish va rivojlanishda bo'ladigan hayot jarayonlari (oziqlanish, nafas olish, ko'payish, transpiratsiya, fotosintez va hokazolar)ni, ularning kelib chiqishini, yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini hamda o'simliklar dunyosini ularning yaqin va uzoq belgilariga asoslanib ma'lum bir sistemaga solishi va nihoyat o'simliklardan har taraflama foydalanish hamda ularni muhofaza qilish yo'llarini Botanika va fiziologiya fani orqali o'rganiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib, talabalarni zamon talablariga mos ravishda o'qitishda keyingi yillarda o'z ijobiy samarasini berayotgan yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zamon talabi hisoblanadi. Biologiya fanlari orasida "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" asosiy o'rinni egallaydi. Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim.

Ushbu tayyorlangan ma'ruza ishlanmasida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan Botanika va o'simliklar fiziologiyasi fanidan 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy, 20 soat laboratoriya mashg'uloti, mustaqil ta'lim 60 soat berilgan. Mazkur ma'ruza mashg'uloti ishlanmasida Botanika va o'simliklar fiziologiyasi fanining Botanika qismining o'simliklar morfologiyasi bo'limidan "Bargning vazifasi, tuzilishi, tiplari va ularning insonlar hamda qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganish tartibi" to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Dastlab mavzuni o'qitish texnologiyasi batafsil yoritilgan. Ma'ruza maqsadi, umumiy tushuncha, mustahkamlash uchun savollar berilgan. Umumiy tushunchalar mavzuning rejalari asosida batafsil yoritilgan. Oxirida bilimni so'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlar o'rin olgan. O'qituvchi mavzuni mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar asosida topshiriqlarni tuzgan. Internet ma'lumotlari hamda yangi adabiyotlarga murojaat etgan.

Xulosa qilib aytganda, G.A.Suvonova tomonidan tayyorlangan ushbu ma'ruza darsi ishlanmasi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, Biotexnologiya fakulteti 60812100-Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar bilim va ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Biologiya fakulteti dotsenti

X. Heral
tasdiqlayman

Sharof Rashidov nomidagi

SamDU kadrlar bo'limi boshlig'i

X.H. Jalov
X.H. Jalov